



RUHI DOIM UYG‘OQ BO‘LGAN BUYUK OYBEKIM

Maftuna Xoliqova

Talaba

Nodira Yusupova

Dotsent, Toshkent To‘qimachilik
va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek adibi Oybekning sadoqatli do‘sti, oliyjanob umr yo‘ldoshi Zarifa Saidnosirovaning mehr va sadoqat ufurib turgan xotiralari, samimiy hislarga boy bo‘lgan chin muhabbat tuyg‘ulari to‘g‘risida bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: san‘at, adabiyot, yozuvchi, kitob, ijod.

“Buyuklarning ruhi doimo uyg‘oq” bo‘ladi deganlaridek, iste‘dodli shoir, yirik nosir, mashhur olim, publitsist, tanqidchi va tarjimon, davlat va jamoat arbobi Oybekning ijodi, hayot sarchashmalari, Zarifa opa bilan bo‘lgan chin muhabbat qissalari har bir adibni sevgan, ijodini hurmat qilgan kitobxonni adib yashagan uy muzeyiga chorlaydi.

Adibning qiyinchilikda o‘tgan umr qissasi uy muzeylari ziyoratiga borgan kishini ruhi doimiy uyg‘oq tarzda siz bilan ijodi ila hamsuhbat bo‘lishini teran his qilib turasiz.

O‘zining rang-barang ijodi va ulkan jamoat arbobi sifatidagi faoliyati b-n o‘zbek xalqining madaniy yuksalishiga katta hissa qo‘shgan Oybek yashagan, ijod qilgan uyida uy muzey tashkil qilingan bo‘lib, hovlining o‘rtasida unga [haykal](#) o‘rnatilgan. Bu haykalga boqib go‘yoki o‘sha davrga tushib qolgandek bo‘lasiz.

Oybek va Zarifa Saidnosirova hamqadam va bir birlariga hamnafas bo‘lib hayot kechirishgan. Zarifa Saidnosirova bu buyuk inson bilan bir kam qirq yil umr o‘tkazdi,



xonadonlarida hamisha baxt chirog'i yoniq bo'ldi. Ularning chin muhabbati, bir birlarini ko'z qarashlari bilan tushungan holatlari, ikki qahramonning boshidan o'tgan sarguzashtlar yosh avlodga o'rnak bo'lsa arziydi va hayotga qiziqishingizni orttirib, kuch-quvvat bag'ishlaydi, muvaffaqiyat sari yetaklaydi.

Oybek hovliga qarab ijod qilgan ochiq ayvondan ichkari tomon yurilsa, o'ng qo'lda shinamgina xona birinchi o'zbek kimyogar olimasi Zarifa Saidnosirova va uning otasi Saidnosir Mirjalilovni esga soluvchi rasm, hujjat, buyumlar, Zarifaxonim chizgan tabiat manzaralari bilan fayz taratib turadi.

Bolaxonali pastakroq yog'och darvozadan kirib borishingiz bilan chap qo'lda ekspozitsion, ro'parada memorial muzeyga ko'zingiz tushadi. Har ikkala bino ostonasidagi zinalar ko'chib, devorlarning rangi o'chib qolgan bo'lsa-da, Oybek va Zarifa Saidnosirovaga baxt ato etgan bu hovlining istarasi hamon issiq o'ziga qaysidir iliqlik bilan chorlaydi.

Muzeyning ilmiy xodimi Gulchehra Shokirova kamida 70–80 yillik eksponatlarni tushuntirib, izohlab berar ekan juda ehtiyotlab saqlash kambag'al oiladan chiqqan va internatda tarbiyalangan adibning qisqa umri davomida erishgan yutuqlari, muammolarni birgalikda yengib o'tgan umr yo'ldoshi Zarifa opa haqida har o'zbek ayolining mardonavor xatti-harakatlari muhabbatning aql va ko'z ilg'ay olmaydigan go'zallik yoki buyuklikni ham kashf etganday bo'ladi.



Mazkur uy-muzeyida ham gazetalardagi maqolalar, adib faoliyatiga doir turli hujjatlar, uchrashuvlar muhrlangan tasvirlar, adibning oilasi, farzandlariga yozgan telegrammalari, olis safarlardagi suratlari yozuvchi ijodiga chuqurroq kirib borishga undaydiki, “Oybegim mening” asarini yana bir bor o‘qigingiz, muzeyda ko‘rganlaringiz kitobda qanday aks etganini bilgingiz keladi. Oybek vafotidan so‘ng barcha xotiralari, kundaliklarini yig‘ib “Oybegim mening” nomli vafo dostonini yaratadi.

Umr yo‘ldoshiga chinakam tirgak, haqiqiy rafiq bo‘lgan Zarifa Saidnosirova ilk olima rutbasi qatori sadoqat timsolidir. Zarifa opa bir kam qirq yil davomida ulug‘ yozuvchining rafiqasi sifatida uning xonadonida sevgi va baxt chirog‘ini yoqib keldi, ne-ne asarlarining yozilishiga ilhom berdi, Oybek dushmanlar xuruji tufayli tildan mahrum bo‘lib, qo‘li yozolmay qolganida, uning biyron tili va chaqqon qo‘li bo‘ldi. Oybek ham umrining oxirigacha o‘zining eng tiniq muhabbat tuyg‘ulari aks etgan she‘rlarini faqat mahbubasiga bag‘ishladi.

Ijodkorni kelajak avlod ham yaqindan tanishi uchun asarlari qatori uy-muzeyi tashkil etilgan. Adib vafot etgan yili 4 yashar bo‘lgan nevarasi Oynur opa muzeyga rahbarlik qilib



kelishlari bilan birga ikki buyuk shaxsning samimiy sevgilari to'g'risida eshitganlarini bayon qilib beradi.

35 yildan buyon shu dargohda ishlayotgan, har kuni ertalab kelib, Oybek domlaga salom berishga odatlanib qolgan uy-muzey ilmiy xodimi Gulchehra opa bilan suhbatlashish jarayonida bir narsadan juda xursand bo'ldik. Davlatimiz rahbarining tegishli qarori bilan "Adiblar xiyoboni" da haykallari o'rnatilgan ijodkorlar hayoti va ijodini o'rganish oliygohlarga biriktirib qo'yilgani bizning kim ekanligimizni isbotlovchi dalil hisoblanadi. Chunki, ma'naviy barkamol yoshlar avlodlarni tanishlari, bosib o'tgan mashaqqatli yo'limiz barchamizga saboq bo'lishi, bugungi voqelikni teran tahlil qilib, mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo'lib yashashga da'vat etishi lozim. O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q. Bu haqiqat kishilik tarixida ko'p bora o'z isbotini topgan. millatning o'ziga hurmat bilan qarashning asosiy belgisidir. Ming yillar mobaynida shakllangan milliy qadriyatlarimiz hozirgi davrda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar bilan qo'shib, taraqqiyotimizni tezlatadi, g'oyaviy va ma'naviy poklanishni ta'minlashga ko'maklashadi.



“Oybek hayoti va ijodini keng o‘rganish Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutiga topshirilgach, o‘qituvchilar-u talabalar bu yerga tez-tez kelib, seminarlar, tadbirlar o‘tkazadigan bo‘ldi. Nomdor stipendiyaga loyiq ko‘rilgan talabalar ilmiy ishlar



olib boryapti. Ular uchun hamisha eshigimiz ochiq. Qolaversa, Oybek hayoti va ijodi bilan bog‘liq har qanday tadbirga bajonidil hovlimizdan joy berishga tayyormiz” – deydi muey xodimasi. Opaning gaplaridan xursand bo‘ldik. Adib o‘z qo‘li bilan ekan ulug‘vor archaga baslashib o‘sayotgan hovlidagi boshqa daraxtlar, anvoyi gullar, ayniqsa, bahor payti uyning ko‘rkiga ko‘rk qo‘shishini tasavvur qildik. Ijodkorning chet ellik ixlosmandlari-da kelib turadigan bu qutlug‘ dargohga ham aslida bir chimdim mehr va e‘tibor kifoya.

Yozuvchi asarlari o‘zbek adabiyotining jahonaro shuhratini yanada oshirdi. Ustoz mahorati yosh yozuvchilar uchun ijod dorilfununiga aylandi. Oybekning o‘lmas asarlari ma’naviy xazinamizdan mustahkam o‘rin oldi va umumxalq mulki bo‘lib qoldi. Oybek jahon adabiyotining nafaqat ingliz, nemis, fransuz, balki fors, hind, ozarboyjon, o‘zbek va rus millatlariga mansub namoyandalarining o‘lmas asarlarini ham o‘qib-o‘rgandi yoki tarjima qildi. Har ikki holda ham ulardan estetik zavq olish bilan birga ularga badiiy mahorat maktabining ustozlari sifatida munosabatda bo‘ldi.

Oybek she’riyati nihoyatda go‘zal bo‘lib, o‘zining sodda, ravon va ifodali tilda, boy va rang-barang tasviriy vositalarda yaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, “Quyosh qushig‘i” she’rida:

Quyosh, nuring to‘kaber mo‘l- ko‘l!

Bahor, ketma, bizning boshlardan.

Yurtimizda qolmasin dasht-cho‘l,

Chaman kulsin hatto toshlardan!

Oybek mohir shoir bo‘lgani ila insoniylik, yaxshilik, adolat, millatlararo va dinlararo totuvlik kabi ezgu g‘oyalarning ilgari surilishini ko‘rish mumkin. Inson qalbining quvonch-qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti



tarixida kamdan-kam topiladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

Oybek dahosiga, Oybek salohiyatiga, qolaversa, metindek matonatiga ellik yillar ortdagi avlodlarning bir iqrori, tasannosi deb qaralsa bo‘lar. Zero, zamonlar, davrlar o‘tar, avlodlar o‘zgarar, biroq Oybek fenomeni, Oybekning bizga zamonning beayov zarblari qoshidagi temir irodasi, zahmati, mehnati, umr yo‘ldoshiga bo‘lgan muhabbati namuna bo‘lib qolaveradi.

O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishiga, ham o‘zbek xalqini jahon adabiyoti bilan tanishtirish ishiga katta hissa qo‘shgan so‘z sehrkorlaridan biri Oybekning ruhi doim uyg‘oqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev.Sh.Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Sharafiddinov O.Adabiyot mangu yashaydi//Jahon adabiyoti.1998.№1-B.4.
3. Asad Dilmurod. Pahlavon Muhammad. – Toshkent: Sharq, 2006.